



THE MEANS OF ACQUIRING KNOWLEDGE IN ISLAMIC CREED

Saidmahmudxon Parpiyev

Research fellow of the Imam Maturidi

International Scientific Research Center

E-mail: sayyidmahmudparpiyev@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: aqidah (creed), knowledge, sound senses, reliable report, mutawatir (mass-transmitted) report, reason, transmission (naql), the unseen (gha'ib), the manifest (shahadah).

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the foundational sources for the formation of knowledge and belief in Islamic creed (aqidah). According to the views of the scholars of Ahlus Sunnah wal Jama'ah, it is explained that knowledge is acquired through three primary means: sound senses, reliable reports (transmission), and sound reason (intellect). The article elucidates the nature, limitations, and mutual compatibility of each of these means, based on foundational creedal works.

ISLOM E'TIQODI BO'YICHA ILMNI HOSILQILUVCHI VOSITALAR

Saidmahmudxon Parpiyev

Imom Maturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

katta ilmiy xodimi

E-mail: sayyidmahmudparpiyev@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: aqida, ilm, sezgi a'zolari, ishonchli xabar, mutavotir xabar, aql, naql, g'ayb, shahodat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom aqidasi bo'yicha ilm va e'tiqodning shakllanishiga asos bo'ladigan manbalar tahlil qilinadi. Ahli sunna val-jamoa ulamolarining qarashlariga ko'ra, ilm uchta asosiy vosita – sog'lom sezgi a'zolari, ishonchli xabar va sog'lom aql orqali hosil qilinishi bayon etiladi. Maqolada ushbu vositalarning har birining mohiyati, chegaralari va bir-biri bilan o'zaro

uyg'unligi aqidaviy asarlar asosida yoritib beriladi.

СРЕДСТВА ОБРЕТЕНИЯ ЗНАНИЯ В ИСЛАМСКОМ ВЕРОУБЕЖДЕНИИ

Саидмахмудхон Парпиев

Старший научный сотрудник Международного научно-исследовательского центра имени Имама Матуриди.

E-mail: sayyidmahmudparpiyev@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: акида, ʼильм (знание), органы чувств, достоверное сообщение, хабар-мутавафир, акль (разум), накль (предание), гайб (сокровенное), шахада (явное).

Аннотация: В данной статье анализируются источники, служащие основой для формирования знания (ильм) и вероубеждения (акида) в Исламе. Согласно воззрениям улемов Ахль ас-Сунна валь-Джамаа (людей Сунны и согласия общины), разъясняется, что знание обретается посредством трёх основных средств (или путей): здоровых органов чувств (хисс салим), достоверного сообщения (хабар садик) и здравого разума (акль салим). В статье на основе вероучительных трудов (трудов по акиде) освещается сущность, границы применения и взаимная гармония каждого из этих средств познания.

Kirish. Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lgan ilm - borliq haqiqatini anglashga xizmat qiluvchi eng yuksak ne'matdir. Islom ilohiyotida e'tiqodning haqiqiyliги faqat qat'iy dalillar, tekshirilgan manbalar va inkor etib bo'lmaydigan ishonchli xabarlarga tayanishi shart deb belgilangan. Shu bois, bilish nazariyasi (gnoseologiya) masalalari islom tafakkurida doimo alohida ahamiyat kasb etib kelgan.

Islom mutakallimlari oldida asrlar davomida turgan fundamental savol - "Inson bilimi qanday hosil bo'ladi va uning haqiqat mezonlari nimalardan iborat?" - nafaqat nazariy, balki amaliy ehtiyojdan kelib chiqqan. Bir tomondan, borliqni idrok etishni inkor etuvchi skeptik oqimlar - xususan, "sufastoiyya" - ga qarshi ilmiy raddiyalar zarur edi. Ikkinchi tomondan, aqidaviy masalalarni naql va aql uyg'unligida isbotlash uchun izchil metodologik asos yaratish talab etildi.

Bu izlanishlar natijasida Ahli sunna val-jamoa teologiyasi - moturidiylik va ash'ariylik maktablarida - ilm hosil bo'lishining uch asosiy manbasi mavjudligi bo'yicha umumiy kelishuv shakllandi. Imom Najmiddin Nasafiyning mashhur "al-Aqoid" asarida bu manbalar quyidagicha ifodalangan: 1) sog'lom sezgi a'zolari; 2) ishonchli xabar; 3) aql.

Mazkur uchlik inson bilish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi: sezgi a'zolari orqali empirik olam idrok qilinadi, aql yordamida mantiqiy xulosalar chiqariladi, ishonchli xabar (vahiy) vositasida esa g'aybiy haqiqatlar anglanadi. Islom aqidasiining barqarorligi aynan shu uch manbaning uyg'unligi bilan izohlanadi.

Shu bois, ilm vositalarining tabiatini, ularning o'zaro aloqasi va bilishdagi o'rnini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish islom ilohiyotining eng muhim masalalaridan biridir. Quyidagi tadqiqotda musulmon mutakallimlari tomonidan asoslab berilgan mazkur gnoseologik tizimning mazmuni, manbalari va ilmiy asoslari bosqichma-bosqich yoritib beriladi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot islom ilohiyotida bilish nazariyasi va ilm manbalarining shakllanishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi uch asosiy ilmiy metodlarga tayandi:

Manbashunoslik (Sezgi asosidagi dalillar tahlili) – Moturidiy, Nasafiy, Butiy va boshqa mutakallimlarning asarlarida bayon qilingan ilmning asosiy manbalarini (sezgi a'zolari orqali hosil bo'ladigan ma'lumotlar) o'rganish, ularning daliliy asoslarini solishtirish va tarixiy shakllanish jarayonini tahlil qilish.

Naqlshunoslik (Ishonchli xabar tahlili) – Mutavotir xabar, Payg'ambar xabari, hadislar va ishonchli rivoyatlarning aqidaviy masalalardagi o'rnini aniqlash, ularning ilmiy dalil sifatidagi ahamiyatini taqqoslash. Kalom manbalarida xabar kategoriyalarining qo'llanishi ham tahlil qilindi.

Aqliy-tahliliy metod (Ratsional dalillar asosida izoh) – Mutakallimlarning aqlning o'rnini, vazifasi va chegaralari haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Aql, naql va sezgi o'rtasidagi uyg'unlik, shuningdek ularning aqidaviy haqiqatlarni isbotlashdagi roli mantiqiy asosda o'rganildi.

Muhokama. Insoniyat tamadduni va ma'naviy yuksalishining o'zagi bo'lmish ilm – borliq haqiqatini anglashdagi eng oliy ne'matdir. Islom teologiyasida dinning poydevori sanalgan e'tiqod mavhum taxminlar yoki ikkilanishlarga emas, balki qat'iy dalillar va inkor etib bo'lmis ishonchli ma'lumotlarga asoslanishi shart qilib qo'yilgan. Shu bois, islom tafakkurida bilish nazariyasi masalasi hamisha dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Asrlar davomida mutakallimlar oldida turgan "Inson bilimi qanday hosil bo'ladi va uning haqiqiylik mezonlari nimalardan iborat?" degan fundamental savol jiddiy zarurat natijasi edi. Birinchidan, bu davrda borliqning mavjudligini va uni bilish imkoniyatini mutlaq inkor etuvchi skeptik oqimlar, xususan, "Sufistoiyya" toifasiga qarshi ilmiy-mantiqiy raddiyalar berish talab etilardi. Ikkinchidan, islom ilohiyotchilari aqliy dalillarga tayanuvchi faylasuflardan farqli o'laroq, aqidaviy masalalarni ham naql, ham aql uyg'unligida isbotlovchi o'ziga xos mustahkam metodologik bazani shakllantirishlari lozim edi. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida Ahli sunna val-jamoaning ikki yirik e'tiqodiy maktabi – moturidiylik va ash'ariylik ta'limotlarida ilmiy haqiqatni

aniqlashning uchta asosiy manbasi borligi borasida yakdil kelishuv hosil qilindi. Bu gnoseologik asoslar ahli sunna aqidasiining xrestomatik manbasi hisoblangan Imom Najmiddin Umar Nasafiy (vaf. 537/1142)ning “al-Aqoidun nasafiyya” asarida quyidagi ilmiy aniqlik bilan ifodalangan: “Xaloyiq uchun haqiqatlarni sobit qilish va ilmni hosil qilish manbalari uchta: sog‘lom sezgi a‘zolari, ishonchli xabar va aql” [1].

Mazkur uchlikning o‘ziga xosligi shundaki, u insonning bilish jarayonini to‘liq qamrab oladi: sezgi a‘zolari orqali empirik-moddiy olam, aql yordamida mantiqiy-rasional xulosalar va ishonchli xabar (vahiy) vositasida g‘aybiy-metafizik haqiqatlar idrok etiladi. Islom aqidasiining mo‘tabar masalalari aynan ushbu uch manbaning o‘zaro mutanosibligi va uyg‘unligi asosida ilmiy jihatdan isbotlanadi.

Aqida ilmi borasida yozilgan kitoblarning deyarli barchasida “Asbobul ‘ilm” (“Ilm vositalari”) mavzusiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ahli sunna val-jamoa mazhabi ulamolari insonda ilmni hosil qiluvchi manbalar uchta ekanini, shu uch vosita orqali inson ongida ma‘lumotlar qaror topishini ta’kidlaganlar. Xususan, moturidiylik ta’limoti asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy (238-333/853-944) o‘zining “Kitobut tavhid” asari boshida “Bilimning o‘zi mavjud” ekanini isbotlaganidan so‘ng, o‘sha bilim insonda qaysi yo‘llar bilan hosil bo‘lishini bayon qiladi. Bu uning butun aqidaviy tizimining poydevori hisoblangani bois birinchi navbatda shu mavzuga to‘xtalgan. Imom Moturidiy bu vositalarni quyidagicha nomlagan: al-iyon (العيان) - bevosita kuzatish, sezgi a‘zolari orqali idrok qilish; al-axbor (الأخبار) – xabarlar; an-nazar (النظر) – mulohaza va tafakkur yuritish orqali xulosa chiqarish [2].

Alloma Abul Muin Nasafiy (vaf. 508/1114) “Tabsiratul adilla” asarida shunday yozadi: “Ilmning sabablari va yo‘llari uchta: Birinchisi, sog‘lom sezgi a‘zolari. Bunga eshitish, ko‘rish, hid bilish, ta‘m bilish va ushlar kiradi. Ikkinchisi, rostgo‘y insonning bergan xabari. Uchinchisi, aql” [3].

Alloma Ramazon Butiy (1347-1434/1929-2013) esa “Kubrol yaqiniyyatil kavniyya” asarida inson ilmini ikki asosiy manbaga ajratadi: Birinchisi, moddiy olam vositalari. Bular bizning sezgi a‘zolarimiz va tajribamizdir. Biz moddiy dunyoni ko‘rish, eshitish, ushlar va aql yuritish orqali bilamiz. Ikkinchisi, g‘ayb olami vositasi. Bu – vahiy yoki ishonchli xabardir. Shayx Butiyning fikricha, aql bu ikki olam o‘rtasidagi bog‘lovchi vositadir. Uning qarashiga ko‘ra, bizning aqlimiz moddiy olamni sezgi a‘zolari orqali kuzatib, “Bu olamning yagona Yaratuvchisi bor” degan qat‘iy xulosaga kela oladi. Aql Yaratuvchining borligini, birligini va qudratini isbotlay oladi. Ammo, aql Yaratuvchining O‘zi haqidagi tafsilotlarni mustaqil ravishda bila olmaydi. Aqlning eng yuqori vazifasi – moddiy olamni kuzatib, Yaratuvchini tanish va shu Yaratuvchidan bizga “xabar” (vahiy) kelishi zarurligini idrok etishdir [4].

Moturidiy shunos olim Doktor Ahmad Sa'd Damanhuriy "Nazariyyatul ma'rifa" asarida ilm manbalarini quyidagicha tavsiflaydi: "Ilmning manba va vositalari uchta. Birinchisi: sog'lom sezgi a'zolari. Ular: eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish va ushlar sezgilaridir. Ikkinchisi: ishonchli xabar. Uchinchi: aql. Sufistoylar bularning barchasini inkor etganlar. Sezgi a'zolari haqida esa yuqorida gaplashdik. Barcha oqillar sezgi a'zolarining bilim manbalaridan ekanini tan olganlar. Faqat o'zini bilmaslikka soladigan anavilardan tashqari. Xabarning bilim manbalaridan ekanini inkor qilishda ularga (sufistoylarga) avvalgilardan ikki firqa qo'shilgan. Biri samaniyalar, ikkinchisi esa brahmanlar. Aqlning bilim manbalaridan ekanini inkor qilishda esa ularga faqat samaniyalar qo'shilgan. Mulhidlar, rofiziylar va mushabbihalar esa nazarning botilligi va aqlning bilim manbalaridan emasligini da'vo qilishgan. Ammo brahmanlar aqlning bilim manbalaridan ekanini tan oladilar" [5].

Natijalar. Yuqoridagi iqtiboslardan kelib chiqadiki, islom ulamolari o'rtasida nomlashda juz'iy farqlar bo'lsa-da, bilish manbalarining 3 ta ekaniga barcha mutakallimlar ittifoq qilishgan. Quyida mana shu manbalarni birma-bir tahlil qilamiz:

1. Sog'lom sezgi a'zolari. Bu – insonning tashqi olam bilan aloqa qiluvchi besh sezgi a'zosidir. Ular – eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish va ushlar. Sezgi a'zolari bizga moddiy olam haqidagi bevosita, birlamchi ma'lumotlarni yetkazadi. Masalan, olovning issiqligini ushlar orqali, quyoshning yorug'ligini ko'rish orqali bilamiz. Bu bilimlar tajribaga asoslangan bo'lib, ular inkor etib bo'lmaydigan darajadagi aniqlikka ega. Qur'oni karim insonlarni doimo o'z sezgi a'zolarini ishlatib, borliq haqida tafakkur qilishga chaqiradi. Alloh taolo kalomida shunday marhamat qiladi: "Alloh sizni onalaringiz qornidan hech narsa bilmaydigan holingizda chiqardi. Va sizga quloq, ko'zlar va dillarni berdi. Shoyadki, shukr qilsangiz" [6]. Bu oyatda ilm hosil qiluvchi sezgi a'zolarining ikkitasi – quloq va ko'z zikr qilingan.

Sezgi a'zolari faqat mavjud, jismoniy narsalarnigina idrok eta oladi. Ular g'aybiy (metafizik) olam – masalan, farishtalarning mohiyati, jinlar, jannat, do'zax, qiyomat alomatlar va Allohning zoti haqida ma'lumot bera olmaydi.

2. Ishonchli xabar. Bu – sezgi va aql doirasidan tashqaridagi bilimlarni yetkazuvchi eng muhim manbadir. Kalom ilmida ishonchli xabar ikki turga bo'linadi:

a) Mutavotir xabar. Bu – har bir davrda yolg'onga kelishib olishi aqlan imkonsiz bo'lgan darajada ko'p odamlar tomonidan naql qilingan xabardir. Bu xabar ham xuddi sezgi a'zolari kabi qat'iy ilm (ilmi yaqin yoxud ilmi zaruriy)ni ifodalaydi. Masalan, biz Makka yoki London kabi shaharlarni ko'rmagan bo'lsak-da, ularning borligini aniq bilamiz. Yoxud Imom Buxoriy (194-256/810-870), Alisher Navoiy (844-906/1441-1501) kabi shaxslar tarixda o'tganini mutavotir xabar orqali bilamiz. Shuningdek, Qur'oni karim matnining bizgacha yetib kelishi ham mutavotir xabarning eng yorqin namunasidir.

b) Paygʻambarning xabari: Bu – rostgoʻyligi moʻjiza orqali isbotlangan paygʻambarning bergan xabaridir. Aqidaviy masalalarning asosiy qismi – Allohning sifatleri, farishtalar, ilohiy kitoblar, taqdir, oxirat kuni, jannat va doʻzax kabi gʻaybiyot masalalari – faqat shu yoʻl bilan bilinadi. Aql bu narsalarning borligini mustaqil kashf eta olmaydi, biroq u paygʻambarning moʻjizasini koʻrib, uning xabari rost ekanligini tasdiqlay oladi. Shu sababli, vahiy orqali kelgan bilim eʼtiqodning asosini tashkil etadi. Hadislar ham ishonchli xabarga kiradi. Ularning mutavotir darajasidagilari aqidada qatʼiy hujjat boʻlsa, ohod (mutavotir darajasiga yetmagan, oz sonli roviylar rivoyat qilgan) hadislar, agar sahih boʻlsa, amaliy masalalarda hujjat boʻladi va aqidaviy masalalarni sharhlab berishi mumkin [7].

3. Sogʻlom aql bu – turli xurofotlar, buzuq shahvatlar va notoʻgʻri qarashlardan xoli boʻlgan, mantiqiy fikrlaydigan aqlidir. Islom dini aqlga katta ahamiyat beradi va uni ilohiy xitobni tushunish uchun zaruriy vosita deb biladi. Aql bu – shunchaki “oʻylash” emas, balki yuqoridagi ikki manba orqali hosil boʻlgan maʼlumotlarni qayta ishlovchi, tahlil qiluvchi, bogʻlovchi va yangi xulosalar chiqaruvchi vositadir.

Shuningdek, borliqni kuzatib, Yaratuvchining mavjudligini anglash; vahiy tushunish va tasdiqlash; manbalardan hukm chiqarish; sezgi aʼzolari orqali olingan maʼlumotlarni umumlashtirish ham aqlning vazifalaridan sanaladi. Osmonlaru yerning, tun va kunning almashinishida aql egalari uchun belgilar borligi Qurʼonda koʻp taʼkidlanadi [8]. Sogʻlom aql toʻgʻri mantiqiy qoidalar asosida ishlatilsa, koinotdagi mukammal tizimni koʻrib, uning bir Yaratuvchisi boʻlishi kerak degan xulosaga keladi.

Aql ilohiy xabarni tushunish, maʼnolarini anglash va uning haq ekanini tasdiqlash uchun ishlatiladi. Masalan, paygʻambarning daʼvosi va moʻjizalarini tahlil qilib, rostgoʻyligini tasdiqlaydi. U Qurʼon va sunnat matnlaridan amaliy hukmlarni chiqarishda, turli masalalarni bir-biriga qiyoslashda ham asosiy vosita sanaladi.

Ammo, aql gʻayb masalalarining mohiyatini oʻzi mustaqil ravishda idrok eta olmaydi. U Yaratuvchining borligini isbotlay oladi, lekin Uning zoti qanday ekanligini, jannatning neʼmatlari yoki doʻzaxning azoblari qanday boʻlishini bila olmaydi. Bu chegarada aqlning vazifasi ilohiy xabarni qabul qilish va unga taslim boʻlishdir. Ahli sunna aqidasi koʻra, naql va sogʻlom aql hech qachon bir-biriga zid kelmaydi. Agar ziddiyat koʻrinsa, yo naql notoʻgʻri talqin qilingan boʻladi yoki aqliy xulosa xato boʻladi [9]. Moturidiya taʼlimotiga koʻra, insonga yuklatilgan birinchi vazifa bu – oʻz aqli bilan borliq haqida fikr yuritib, Allohning borligini anglashga harakat qilishdir [10]. Qurʼoni karimning yuzlab oyatlarida insonlar aql yuritishga chaqirilishi aqlning oʻrni naqadar yuksak ekanini koʻrsatadi.

Islom aqidasi bu uch vosita bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini toʻldiradi va tasdiqlaydi. Masalan, biz sezgi aʼzolarimiz orqali moddiy olamning mavjudligini bilamiz. Aql shu

moddiy olamdagi tartib-intizomni ko'rib, uning Yaratuvchisi borligini, bunday mukammal tizim o'z-o'zidan, tasodifan yuzaga kelib qolishi imkonsiz ekanini anglaydi. So'ng, yana tafakkur qilsa, yaratuvchi yagona bo'lishi lozimligini tushunadi. Zero, iloh bir nechta bo'lsa, olam bunday tartibli holatda bo'lishi imkonsiz edi. Keyin yana tafakkurga sho'ng'isa, "Parvardigor bandalariga haq yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambar yuborishi kerak" degan xulosaga yetib boradi. Chunki, Yaratgan bu olamni maqsadsiz, behudaga yaratgan bo'lishi mumkin emas, bu aqlga mutlaqo zid. Shunday ekan, Alloh taolo bandalariga qanday yashashni, O'ziga qay tariqa ibodat qilish lozimligini payg'ambar yuborish orqali o'rgatishi sog'lom aqlning taqozosidir.

Yuborilgan payg'ambarning rostgo'yligi esa mo'jiza orqali isbotlanadi. So'ngra, o'sha rostgo'y payg'ambar bizga aqlimiz va sezgi a'zolarimiz yordamida bila olmaydigan g'aybiy masalalar haqida xabar beradi. Mana shu tariqa ilm vositalari bir-biri bilan bog'lanib, borliqni anglash, haq yo'lga ergashish kabi hayot-mamot masalalaridan boxabar bo'lishda insonga ko'mak beradi [11].

Ahli sunna val-jamoa kalom maktabida ma'lumot hosil qilish manbalari aniq va bir-birini to'ldiruvchi tizimli asosga ega. Sog'lom sezgi a'zolari bizga moddiy olam haqida birlamchi ma'lumotlarni bersa, sog'lom aql bu ma'lumotlarni tahlil qilib, Yaratuvchining mavjudligi va vahiyni zarurligi haqidagi aqliy xulosalarni taqdim etadi. Ishonchli naql va xabarlar esa inson idrokining bu ikki vositasi o'zaro qiziq qiladigan g'ayb olamiga oid eng ishonchli hamda zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Eng muhimi, bu uch manba bir-biriga zid kelmaydi, balki bir butunlikni va uyg'unlikni tashkil etadi. Ular musulmon kishining o'z e'tiqodini shubha, gumon va ko'r-ko'rona taqliddan xoli bo'lgan, mustahkam ilm asosida qurishga xizmat qiladi. Bu esa Islom dini o'z aqidasi shunchaki hissiyotga emas, balki aniq dalil hamda tekshiruv va mushohadaga qurishga qanchalik katta ahamiyat berishini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, islom ilohiyotida bilish nazariyasi masalasi aqida tizimining eng muhim poydevorlaridan biridir. Mutakallimlar asrlar davomida inson bilimining kelib chiqishi, uning haqiqiylik mezonlari va qaysi manbalarga tayanishi masalasini chuqur o'rganganlar. Ularning ijtimoiy-ma'naviy, falsafiy va diniy oqimlarga bergan javoblari asosida Ahli sunna val-jamoaning yagona gnoseologik tamoyili shakllangan. Mazkur tamoyilga ko'ra, ilm hosil bo'lishining uch asosiy manbasi mavjud: sog'lom sezgi a'zolari, ishonchli xabar va sog'lom aql.

Sezgi a'zolari insonning moddiy olam bilan bevosita bog'lanishini ta'minlaydi va empirik bilishning poydevorini tashkil etadi. Aql ushbu sezgi orqali olingan ma'lumotlarni mantiqiy-tahliliy qayta ishlovdan o'tkazib, borliqning yaratilgani, uning tartib-intizomi va yagona Yaratuvchining mavjudligi haqida qat'iy xulosalar chiqaradi. Ishonchli xabar, xususan,

paygʻambarlar vahyi esa inson aqli va sezgisining imkoniyatlari yetmaydigan gʻaybiy haqiqatlarni maʼlum qiladi. Shunday qilib, ilm manbalari sifatida ushbu uchlik bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini toʻldiradi va yakdil ravishda haqiqiy bilimga yetaklaydi.

Moturidiylik va ashʼariylik maktablarining ushbu boradagi qarashlari islom aqidasiining ilmiy asoslanganligini, hissiy holat yoki mavhum taxminlarga emas, balki qatʼiy dalillarga tayanishini namoyon etadi. Xususan, Imom Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Imom Nasafiy va boshqa allomalarning taʼlimotlari ilm manbalarining yaxlit tizimini yaratgan boʻlib, musulmon insonning eʼtiqodi ilmiy dalillarga asoslangan holda shakllanishi zarurligini taʼkidlaydi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, sogʻlom sezgi, aql va ishonchli xabarni uygʻun holda qoʻllash - islom aqidasiining ilmiy va mantiqiy poydevorini mustahkamlaydigan eng muhim metodologik asosdir. Bu uchlik asosida qurilgan eʼtiqod esa insonni gumon, bidʼat va xurofotlardan saqlaydi, uni aniq dalillar va qatʼiy ishonchga tayangan haqiqiy ilm sari yetaklaydi. Shu bois, Ahli sunna val-jamoa aqidasiida bilish nazariyasi faqat nazariy masala emas, balki eʼtiqodning barqarorligi va toʻgʻriligini taʼminlovchi fundamental ilmiy mezon sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Saʼduddin Taftazoniy. Sharhul aqoidin nasafiyya // Aliy Kamol tahqiqi. – Bayrut: Ihyout turosil arabiy, 2014. – B. 29.
2. Abu Mansur Moturidiy. Kitobut tavid // Ahmad Saʼd Damanhuriy tahqiqi. – Ummon: Maktabatul Gʻonim, 2023. – B. 174.
3. Abul Muin Nasafiy. Tabsiratul adilla // Klod Saloma tahqiqi. – Damashq: Al-jaffon val-jobiy, 1990. – J. 1. – B. 15.
4. Muhammad Said Ramazon Butiy. Kubrol yaqiniyyatil kavniyya. – Bayrut: Dorul fikril muosir, 1997. – B. 31.
5. Ahmad Saʼd Damanhuriy. Nazariyyatul maʼrifa. – Ummon: Dorun nur, 2018. – B. 173-174.
6. Nahl surasi, 78-oyat.
7. Saʼduddin Taftazoniy. Sharhul aqoidin nasafiyya // Aliy Kamol tahqiqi. – Bayrut: Ihyout turosil arabiy, 2014. – B. 32-35.
8. Baqara surasi, 164-oyat; Oli Imron surasi, 190-oyat; Yunus surasi, 6-oyat; Moʻminun surasi, 80-oyat; Josiya surasi, 5-oyat.
9. Abdulkarim ibn Abdulloh Xudayr. Sharhul luʼluʼil maknun. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2013. – J.7. – B. 11.

10. Abu Mansur Moturidiy. Kitobut tavid // Ahmad Sa'd Damanhuriy tahqiqi. – Ummon: Maktabatul G'onim, 2023. – B. 174.
11. Mankubars ibn Abdulloh Nosiriy. An-Nurul lome' val-burhonus sote' // Aliy Muhammad Zaynu va Muhammad Toriq Mag'ribiyya tahqiqi. – Samsun: Dorul fotih, 2021. – B. 70-71.